

7. Астахов В.П. Бухгалтерский (финансовый) учет. Учебник для бакалавров. / В.П.Астахов. 11-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2013. – 984 с.
8. Бакаев А.С. Бухгалтерский учет. Учебник. / А.С.Бакаев, П.С.Безруких, Н.Д.Врублевский, В.Б.Ивашкевич и др.; под ред. П.С.Безруких. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Бухгалтерский учет, 2004. – 736 с.
9. Вахрушина М.А. Анализ финансовой отчетности. Учебник. / Колл. авторов; под ред. М.А.Вахрушиной. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 432 с.; 5-е изд., стереотип. – М.: Рус.яз.-Медиа; Дрофа, 2010. – 1025 с.
10. Миддлтон Д. Бухгалтерский учет и принятие финансовых решений. / Д.Миддлтон; пер. с англ.; под ред. И.И.Елисейевой. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 1997. – 408 с.
11. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебник. / В.Ф.Палий. 6-е изд., испр. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2013. – 506 с.
12. Пачоли Л. Трактат о счетах и записях. / Л.Пачоли; под ред. Я.В.Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 368 с.
13. Сотникова Л.В. Бухгалтерская отчетность организации. / Л.В.Сотникова; Ин-т проф. бухгалтеров и аудиторов России. – М.: ИПБР-БИНФА, 2005. – 360 с.
14. Ergasheva, S.T., Mannarova, R.A. & Yuldashev, E.I. Accounting-A system for managing economic information in agriculture. // New Institutions for Socio-Economic Development: The Change of Paradigm from Rationality and Stability to Responsibility and Dynamism. 2021. P. 173-181. DOI: 10.1515/9783110699869-018
15. Стоун Д. Бухгалтерский учет и финансовый анализ: Подготовительный курс. / Д.Стоун, К.Хитчинг = Derek Stone and Claude Hitching; английское издание. – СПб.: Литера плюс, 1993. – 302 с.
16. Терентьева Т.В. Теория бухгалтерского учета. Учеб. пособие. / Т.В.Терентьева. – М.: Вузовский учебник, 2008. – 208 с.
17. Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. Учебник. / А.Д.Шеремет. 3-е изд., доп. – М.: ИНФРА-М, 2011. – 352 с.
18. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 496 с.
19. Tulakhodjaeva, M., Khodjaeva, M. Features of digitalization and ensuring transparency of accounting and audit in Uzbekistan. // ACM International Conference Proceeding Series. 2021. P. 651-654. DOI: 10.1145/3508072.3508201
20. <https://finacademy.net/materials/standartu-msfo/msfo-ias-7-otchet-o-dvizhenii-denezhnykh-sredstv>  
<http://finotchet.ru/articles/87/>
21. <https://lex.uz/docs/711000>



## BOSHQARUV HISOBI METODOLOGIYASINI ZAMONAVIY TIZIMLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Namangan muhandislik-texnologiya instituti  
Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida,

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss2/a9](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a9)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda xo'jalik yurituvchi subyektlarning alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish, ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni rejalashtirish, tannarxni hisoblashning eng samarali va optimal usulidan foydalanish, strategik qarorlar va rejalarning amalda bajarilishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kabi masalalar o'rganilgan va yoritib o'tilgan. Bundan tashqari xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobi samarasini yanada oshirishga bevosita ta'sir qiladigan yangi kalkulyatsiya usuli, ya'ni hayotiy davr bosqichlari bo'yicha kalkulyatsiya qilish usuli yoritib o'tilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishda o'zining ijobiy yechimini kutayotgan bir qator muhim masalalar va ularni hal etish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish, kalkulyatsiya, xarajatlar hisobi, innovatsion yondashuvlar, moliyaviy hisobot, mahsulotlarni sotish, investitsiya, daromad, axborot texnologiyalari, samaradorlik.

## ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА ЧЕРЕЗ СОВРЕМЕННЫЕ СИСТЕМЫ

**Собиров Отабек Олимжонович**

Доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент  
Наманганский инженерно-технологический институт  
Кафедра Бухгалтерского учета и аудита

**Аннотация.** В данной статье мы рассмотрим организацию и ведение управленческого учета с учетом особенностей хозяйствующих субъектов, планирования затрат в производственном процессе, использования наиболее эффективного и оптимального метода расчета себестоимости, выявления факторов, влияющих на реализацию стратегических решений и планов и их реализации, изучаются и освещаются такие вопросы, как разработка мер по исправлению положения. Кроме того, выделен новый метод расчета, который непосредственно влияет на дальнейшее повышение эффективности управленческого учета в хозяйствующих субъектах, - метод расчета по периодам стадий жизненного цикла. Кроме того, разработан ряд важных вопросов, ожидающих положительного решения в организации и ведении управленческого учета в хозяйствующих субъектах, а также выводы и предложения по их решению.

**Ключевые слова:** Управленческий учет, производство, калькуляция, учет затрат, инновационные подходы, финансовая отчетность, реализация продукции, инвестиции, доходы, информационные технологии, эффективность.

## CHARACTERISTICS OF IMPROVING MANAGEMENT ACCOUNTING METHODOLOGY THROUGH MODERN SYSTEMS

**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Doctor of philosophy (PhD) in economic sciences, associate professor  
Department of Accounting and Auditing,  
Namangan Institute of Engineering and Technology

**Abstract.** In this article, we will discuss the organization and management of management accounting, taking into account the special characteristics of economic entities, planning costs in the production process, using the most effective and optimal method of cost calculation, identifying the factors that affect the implementation of strategic decisions and plans and their implementation. issues such as the development of remedial measures are explored and highlighted. In addition, a new method of calculation, which directly affects the further increase of the effectiveness of management accounting in economic entities - that is, the method of calculation by life cycle stage periods, is highlighted. In addition, a number of important issues awaiting a positive solution in the organization and maintenance of management accounting in economic entities, as well as conclusions and proposals for their solution, have been developed.

**Key words:** Management accounting, production, calculation, cost accounting, innovative approaches, financial reporting, product sales, investment, income, information technologies, efficiency.

**Kirish.** Yurtimizda tadbirkorlik subyektlarining sonini ko'paytirish, ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish maqsadida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-sonli "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida

mamlakatimizda ishlab chiqarish sohasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab berilgan edi [1, 2, 3]. Bunday islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri fuqarolarning turmush farovonligini yanada yuksaltirish hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, hududlarda tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish, ularga xorijiy investitsiya mablag'larini keng jalb etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishda, avvalo, xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv hisobini samarali yuritishni tashkil etishi hamda xarajatlar hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritishni amalga oshirishi lozim.

Xususan, hozirgi globallashuv sharoitida, xo'jalik yurituvchi subyektlardagi boshqaruv hisobi samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir qiladigan tannarxni hisoblash bo'yicha yangi kalkulyatsiya usuli – hayotiy davr bosqichlari bo'yicha mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usuli keng ommalashmoqda.

Yangi kalkulyatsiya tizimi paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri mahsulotlar hayotiy bosqichining qisqarishi bilan ifodalanadi. Misol tariqasida, zamonaviy kompyuter dasturlari, dasturiy ta'minotlar kabi qator mahsulotlar bo'yicha hayotiy davr bosqichlarining borgan sari tez qisqarishini keltirish mumkin.

Mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tashkil etish bugungi kunda soddalashtirilgan tartibda amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'plab qulayliklar va imtiyozlar yaratilmoqda. Jumladan, aylanma mablag'ni shakillantirish uchun bank kreditlari, soliq to'lovidagi imtiyozlar va hokazo. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati tashkil etilganidan so'ng faoliyatni davom ettirish masalasi dozarb ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni boshqaruv jarayoni, xarajatlar va ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil etish va yuritish birmuncha murakkab hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalar xarajatlar hisobini noto'g'ri yuritishi oqibatida salbiy natijalarga erishishi, yakunida faoliyati tugatilishiga olib kelmoqda.

Boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishda o'zining ijobiy yechimini kutayotgan bir qator muhim masalalar mavjudki, ana shu muhim, ya'ni o'zining ijobiy yechimini kutayotgan dolzarb masalalar qatoriga boshqaruv hisobida ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat) birligi tannarxini aniqlashdagi muhim omil bo'lgan – amaldagi kalkulyatsiya tizimidagi muammolarni ham kiritish kerak, deb hisoblaymiz. Sababi, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatli va arzon bo'lishi uning xaridorgirligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni olib borgan xorijiy iqtisodchi olimlardan Ch.Horngren, G.Foster, S.Datar, M.A.Varxushina, N.P.Kondrakov va M.A.Ivanova tomonidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan. Mamlakatimizda boshqaruv hisobini takomillashtirish borasida o'z izlanishlarini olib borgan olimlarimizdan A.A.Abdug'aniyev, N.B.Abdusalomova, A.Z.Avlokulov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, M.B.Kalonov, U.U.Kostayev, B.Y.Maxsudov, M.K.Pardayev, A.X.Pardayev, N.K.Rizayev, B.A.Xasanov, I.K.G'iyasov, O.O.Sobirovning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Mazkur mualliflarning

tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda boshqaruv hisobining tashkil topishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Xususan, Ch.Horngren, G.Foster, S.Datarning baholashiga ko'ra, "Avtomobillarning hayot davri – besh-olti yilni tashkil etadi. Ayrim farmatsevtik preparatlarning hayotiy davri yetti yildan o'n yilgacha muddatni tashkil etishi mumkin". Olimlarning mazkur yondashuvlari tannarxni hisoblashni hayotiy davr bosqichlari bo'yicha hisoblashni ifoda etadi [4].

Xorijiy tadqiqotchi olim M.A.Varxushina boshqaruv hisobining xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruv maqsadlariga mo'ljallangan bo'lishligi faqat tezkor qarorlar tayyorlashga yo'naltirilganlik kabilarni o'z ichiga olishi to'g'risida fikr bildirib o'tgan [5].

Tadqiqotchi olimlar N.P.Kondrakov va M.A.Ivanova "Moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining miqdori va harakatini hisobga olish va ular bo'yicha boshqaruvchilarga axborot berish" boshqaruv hisobining maqsadini ochib berishda shu kabi vazifalarni bajarishini e'tirof etadilar. Ushbu yondashuvlar boshqaruv hisobining mohiyatini ochishda muhim ahamiyatga ega [6].

Bundan tashqari olimlarimizdan A.X.Pardayev va Z.A.Pardayeva o'z tadqiqotlarida xarajatlarni samarali yuritishni takomillashtirish masalalarini yoritib o'tganlar, ya'ni boshqaruv hisobini mas'uliyat markazlari bo'yicha tashkil etish xarajatlarni yanada ko'proq nazorat qilish imkoniyatini yaratishi bo'yicha fikr-mulohazalarini bayon etganlar [7].

Tadqiqotchi olim A.Z.Avlokulov boshqaruv hisobini rivojlantirishda xarajatlar klassifikatsiyasiga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, "chiqim", "sarf" va "xarajatlar" kategoriyalarining amal qilish doiralarini ilmiy jihatdan asosli tarzda ko'rsatib bergan va chiqim, sarf va xarajatlar atamalaridan sinonim so'zlar tarzida foydalanish mumkinligini bildirgan [8].

Tadqiqotchi olim U.Kostayev boshqaruv hisobining mohiyatini ochib berishda quyidagi qarashlarni bildirgan: "...korxonalarining faoliyatlari yo'nalishida vujudga keladigan nafaqat subyekt ichidagi xarajatlar, balki mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchiga yetkazib berishning barcha jarayonlarida ishtirok etayotgan barcha bo'g'inlar, shuningdek, ana shu bo'g'inlarning faoliyat yo'nalishlarida ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirini, aniqrog'i, xarajatlarni hisobga olish va boshqarish imkoniyatini yaratib beruvchi mexanizmini o'z ichiga oladi" [9].

Shuningdek, tadqiqotchi olim O.Sobirov tomonidan esa "mahsulotning tannarxi va bahosini

budjetlashtirish tamoyili asosida yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi bosqichlari bo'yicha alohida hamda umumlashgan holda kalkulyatsiya qilish tizimini ishlab chiqish va uni hisob siyosatiga kiritish" hamda "mas'uliyat markazlarida xarajatlar miqdorini optimallashtirish maqsadida "AVS", "Target kosting" va "Kayzen kosting" kalkulyatsion tizimlarini integrallashtirish asosida qo'llash" bo'yicha taklif va yondashuvlar bildirilgan [10, 11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobni o'rganish va tahlil etish bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar natijalari, amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtgacha bu boradagi masalalarning ko'pchiligi bahsli xarakterga ega va bu bahsli holatlar bartaraf etilmagan. O'z navbatida, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yanada chuqur tadqiqot ishlarini olib borish lozim. Buning uchun esa quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Ular: kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil, anketa so'rovnomasini o'tkazish, natijalarni ekspert baholash, iqtisodiy tahlil va iqtisodiy-statistik usullar kabi usullar [12].

**Tahlil va natijalar.** Kalkulyatsiya tizimini rivojlantirishda unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kalkulyatsiya tizimini takomillashtirishda quyidagi omillar, albatta, hisobga olinishi kerak, deb hisoblaymiz:

1. Jahon bozori iqtisodiyotining rivojlanish an'analari; kalkulyatsiya tizimi rivojiga ta'sir qiluvchi omillar nuqtayi nazaridan mamlakatda bozor iqtisodiyoti rivojlanishi istiqbollari.

2. Buxgalteriya hisobining eng yangi yutuqlari; boshqaruvning eng yangi nazariyalari.

3. Axborot tizimlari rivojlanishi an'analari.

Biznesni yuritish maqsadlariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan kalkulyatsiya tizimlarining istiqbollari bir necha o'lchamlarda ochib boriladi:

- vaqt (o'tgan davr va kelgusi davr);

- boshqaruv qarorlari darajasi nuqtayi nazaridan (tezkor, taktik, strategik).

Xo'jalik yurituvchi subyektning raqobat afzalliklari nuqtayi nazaridan - farqlanish strategiyasi, xarajatlarda liderlik (birinchilik) strategiyasi va zarur vaqt va sifat o'lchamlarini qo'llab-quvvatlash sohasida istiqbollar ochiladi.

O'tgan asrning 80-yillarida paydo bo'lgan noan'anaviy kalkulyatsiya tizimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud nazariy ishlangan yoki amaliyotda ommalashgan kalkulyatsiya tizimlarining ko'pchiligi o'ziga xos ildizlariga ega. Misol uchun, «target-kosting» o'rganish natijasida ma'lum

bo'ladiki, mazkur tizim mutlaq yangi emas, balki uning manbalari mavjud bo'lgan, masalan: funksional-qiyamat tahlilida (FQT). Axborot texnologiyalarining rivojlanishi mazkur kalkulyatsiya tizimining baholarini boshqarishda samarali qo'llash imkoniyatini beradi. Fikrimizcha, «target-kosting» kalkulyatsiya tizimi kelajakda rivojlanish istiqboliga ega. Ko'pchilik mazkur kalkulyatsiya tizimining paydo bo'lishini yangi boshqaruv nazariyasi - «cheklashlar nazariyasi»ning ta'siri ommalashuvi bilan bog'laydi. Albatta, bu borada tutash nuqtalari mavjud, biroq ilmiy ishlardagi mavjud qarashlarni tahlil etib, shunday xulosaga kelish mumkinki, deyarli o'xshash uslub - funksional-qiyamat tahlili (FQT) mavjud. Ushbu uslublar konseptual nuqtayi nazardan o'xshash bo'lsa-da, birining nomlanishida kalkulyatsiya qilishga urg'u berilsa, ikkinchisida tahlilga urg'u beriladi. Xususan, yondashuvlarni taqqoslash shuni ko'rsatmoqdaki, «target-kosting» FQT kabi mahsulotni takomillashtirishga qaratilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ish tajribasini amaliy o'rganish xo'jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy kalkulyatsiya tizimini amaliy qo'llash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish kerakligini ko'rsatmoqda. Rivojlangan bozor munosabatlariga ega mamlakatlar ekspertlarining bu boradagi yondashuvlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Xususan, Ch.Horngren, G.Foster, S.Datarning baholashiga ko'ra, "Avtomobillarning hayot davri besh-olti yilni tashkil etadi. Ayrim farmatsevtik preparatlarning hayotiy davri yetti yildan o'n yilgacha muddatni tashkil etishi mumkin"ligi yuqorida ta'kidlab o'tildi. Olimlar tomonidan bildirilgan ushbu yondashuvlar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hayotiy davr bosqichlari bo'yicha kalkulyatsiya qilish uslubiyotini ishlab chiqishni takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Bu borada mamalakatimiz olimlaridan A.Pardayev, U.Kostayev va O.Sobirovning yondashuvlari e'tiborga molikdir. Xususan, U.Kostayev tomonidan "korxonalarining faoliyatlari yo'nalishida vujudga keladigan nafaqat subyekt ichidagi xarajatlar, balki mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchiga yetkazib berishning barcha jarayonlarida ishtirok etayotgan barcha bo'g'inlar, shuningdek, ana shu bo'g'inlarning faoliyat yo'nalishlarida ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirini, aniqlash, xarajatlarni hisobga olish hamda boshqarish imkoniyatini yaratib beruvchi mexanizmi" taklif etilgan. Tadqiqotchi olim O.Sobirov tomonidan esa "mahsulotning tannarxi va bahosini budjetlashtirish tamoyili asosida yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi bosqichlari bo'yicha alohida hamda umumlashgan holda kalkulyatsiya qilish tizimi ishlab chiqilgan va uni hisob siyosatiga

kiritish” hamda “mas’uliyat markazlarida xarajatlar miqdorini optimallashtirish maqsadida “AVS”, “Target kosting” va “Kayzen kosting” kalkulyatsion tizimlarini integrallashtirish asosida qo’llash” taklif etilgan. Mahsulotlarni hayotiy davr bosqichlari bo’yicha kalkulyatsiya qilish uslubiyotini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo’llash maqsadga muvofiq.

**Xulosa va takliflar.** Kalkulyatsiyaning an’anaviy tizimlari tahlili ularni kelgusida rivojlantirish istiqbollari ko’rsatib berdi. Kalkulyatsiyaning muhim omili normativ (me’yoriy) hisobni takomillashtirishdir. Normativ hisobning kelgusidagi rivojlanishi boshqaruv hisobining ham biznesni, ham xo’jalik yurituvchi subyekt bo’linmalarini boshqarish borasidagi asosiy vazifasi samaradorligini oshirish uchun zarur. Xo’jalik yurituvchi subyektlar amaliyotidagi normativ hisobning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijasida: normativ hisob tizimidagi faqat mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblashdan voz kechish

hamda mahsulotlar bilan bir qatorda biznes-jarayonlarini va uning tarkibiy elementlari (jarayonlar va ishlar)ni ham normativ hisob obyektlari safiga kiritish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari omillar kesimida xarajatlar moddalari yoki elementlari bo’yicha schyotlardagi chetlashishlar hisobini tashkil etish yuqoridagi sanab o’tilgan tadbirlar samaradorligini qo’shimcha tarzda oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirish va shu boradagi mavjud boshqa ilmiy maktablar namoyandalarning talqinlarini tahlil qilish natijalari ko’rsatadiki, bugungi kunda korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini hisoblashda zamonaviy kalkulyatsiya tizimidan foydalanish lozim. Bu borada “tannarxni aniqlashda mahsulotning tannarxi va bahosini budjetlashtirish tamoyili asosida yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi bosqichlari bo’yicha alohida hamda umumlashgan holda kalkulyatsiya qilish tizimi” dan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-sonli “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni. – T., 2019-y.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo’yicha Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni. – T., 2021-y.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “Xalq so’zi” gazetasi. 2022-yil.
4. Horngren Ch., Foster G., Datar S. Boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. 1997-yil.
5. Вахрушина М.А. Внутренний производственный учет и отчетность. Сегментарный учет и отчетность. Российская практика: проблемы и перспективы. Экономика и жизнь, 2000.
6. Кондраков Н.П., Иванова М.А. Бухгалтерский управленческий учет. ИНФРА, 2003.
7. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019-y.
8. Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. / I.f.d (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019-y.
9. Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish. / I.f.d (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020-y.
10. Sobirov O.O. Improvement of management accounting in economic entities. Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences. Tashkent. TMI. 2022 year.
11. Sobirov Otabek Olimjonovich. The Cost Of Forming A Management Account In Business Entities. Journal of Pharmaceutical Negative Results. DOI: 10.47750/pnr. 2022. 13.S07-537. 4295-4298. [scopus.com/sourceid/21100216519](https://scopus.com/sourceid/21100216519)
12. Sobirov Otabek Olimjonovich. Boshqaruv hisobida mas’uliyat markazlarini tashkil etish masalalari. // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ilmiy jurnali. – T.: TDIU, 2024-yil.
13. Sobirov O. Product Development Cost Factors Affecting Reduction. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2157. America. 2023. P. 13-14.
14. Sobirov O.O. Boshqaruv hisobining mohiyati va uni tashkil etishda xarajatlarning o’rni. Scientific Journal of “Internatsional Finance & Accounting”. – T.: TMI, 2022-yil avgust. Issue 4. ISSN: 2181-1016.
15. Otabek Olimjonovich Sobirov. Improment of management accounting methodology in economic entities. Scientific Journal of “International Finance & Accounting”. TMI. Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016.
16. Sobirov Otabek Olimjonovich. Opportunities to reduce the cost of product production in business subjects. Scientific Journal of “International Finance & Accounting”. – T.: TMI, 2024. Issue 1. ISSN: 2181-1016.
17. Sobirov O. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari darajasida takomillashtirish. // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. Volume: 2. Issue: 3. 2021. TMI.